

## MAQOLANI TAHLIL QILIB, FIKR BILDIRISH

**Tamanno Abdullayeva Komiljonovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish 6/24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200724>

**Annotatsiya:** Mazkur matnda Gulimoh Abdullayevaning "Nihol bo'y cho'zar" nomli publitsistik maqolasi tahlil qilingan. Muallif bahor, tabiat va insoniy tuyg'ular obrazlari orqali ezgulik, yangilanish va ma'naviy uyg'onish g'oyalarini yoritadi. Maqolada bahor ramzi, milliy qadriyatlar hamda ijodkorning samimiy dunyoqarashi alohida aks etgan.

**Kalit so'zlar:** publitsistika, bahor, badiiy obraz, ramziylik, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, ijod, Gulimoh Abdullayeva.

"Yozdimki qolmasin dildagi armon, So'z bilan yoritdim qorong'u jahon".

Sarlavha mavzusida fikr yuritishdan oldin, "Maqola" so'zining ma'nosi haqida ma'lumotga ega bo'lish o'rinlidir.

Maqola (arab tilidan olingan bo'lib) publitsistik janr hisoblanadi. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuq, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh Maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola keng qo'llaniladi.

Maqolalar mazmuni, maqsadi va uslubiga ko'ra ilmiy, publitsistik va ommabop turlarga bo'linadi.

Quyida, Sariosiyolik adabiyotga ixlosmand ijodkor - Gulimoh ABDULLAYEVANing ijodidan "Nihol bo'y cho'zar" nomli publitsistik maqolasini tahlil qilib, fikr bildiramiz.

"Bahor... Seni kutganlarim rost... Sog'inchdan entikkanlarim, Lolaqizg'aldoqni sog'inganlarim, Barchasi sarob emas, rost... Yo'llarimga gullardan poyonoz sol, ona zamin uzra chechaklaring os, chakkalarimga gulchambardan ro'mol yasa. Sen shunday qudratga ega, chaqaloq so'zlaydi "inga-inga". Nega kerak yovuzlik, baxillik? Nayza yanlig' sanchilar tanga. Darmon kerak tanga, sumalaklar qaynaydi qozonda. Doshqozonga termuladi kelinchak, huuv nariroqda bo'y qizlar uchar arg'imchoq, bo'y yigitlar qaraydi javdirab yangalarga. Yangalarga topiladi qiyqirishga imkon. Sen shunda qol, deydi, kampiriga kekxa bog'bon. Bog'bon nihol o'tkazmoqchun qo'zg'aldi, sekin...".

Xo'sh, ijodkor bahorga yuzlanib: bahor va lolaqizg'aldoqni entikib, sog'ingani mubolag'a yoki ro'yo emasligini oshkor qilyapti.

"Yo'llarimga gullardan poyonoz sol, ona zamin uzra chechaklaring os, chakkalarimga gulchambardan ro'mol yasa. Sen shunday qudratga ega...". Yurgan yo'li xuddi kelinkuyovning poyiga guldan sochilgan gulpoyonozdek, dunyoni rang-barang nafis gullariga to'ldirishi, chakkasida gulchambar taqishini va bahorning qudrati uning go'zalligida ekanligini namoyon etmoqda.

Ijodkor bahorni go'zallik, uyg'onish va ezgulik fasli deb atab, insonlarni yaxshilik va havas qilishga undamoqda.

Sumalak - bahor va Navro'z bayramining nafaqat milliy, balki, quvvatga boy foydali taomi hisoblanishi, bahorda sevgi tuyg'ulari kurtak yozishi: yigitlarning qizlarga e'tibori va buni payqagan yangalarning hazilini so'zla

"Bog'bon nihol o'tkazmoqchun qo'zg'aldi, sekin...".

Bog‘bon erta bahorda nihol, ko‘chat ekib, hayot umid bilan ekilgan nihol bilan boshlanib, kun kelib sersoya, sermeva daraxt misolida davom etishini anglatmoqda...

Ijodkorning, bahorga sog‘inchi va qalbdan chiqqan samimiy e‘tirofiga hamda ijodiga ulkan, chiroyli yanada muvaffaqiyatli parvozlar tilaymiz!

#### References:

1. Abdullayeva G. “Nihol bo‘y cho‘zar”.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent.
3. Quronov D. *Adabiyotshunoslik asoslari*. – Toshkent, 2018.